

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 2-son)



PEDAGOGIKA
PEDAGOGY

MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARINING TEVARAK-ATROFGA EKOLOGIK MUNOSABATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK ZARURAT SIFATIDA

Odilova Hidoyat Qodirjon qizi

TAFU Pedagogika kafedrası katta o‘qituvchisi

Pochta: gozalodilova991@gmail.com

Annotatsiya: Ekologik muammolarni hal etishda ta‘lim jarayonining o‘rni beqiyos bo‘lib, ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarning ekologik tarbiyasini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: uzluksiz ta‘lim, ekologik ta‘lim, atrof-muhit, munosabat, shakllantirish, maktabgacha ta‘lim

Аннотация: Роль образовательного процесса в решении экологических проблем бесценна, и развитию экологического воспитания детей дошкольного возраста уделяется особое внимание.

Ключевые слова: непрерывное образование, экологическое образование, окружающая среда, отношение, формирование, дошкольное образование

Annotation: The role of the educational process in solving environmental problems is invaluable, and special attention is paid to the development of environmental education of preschool children

Keywords: lifelong education, environmental education, environment, attitude, formation, preschool education

Kirish. Maktabgacha ta‘lim sohasi uzluksiz ta‘lim tizimining birlamchi bo‘g‘ini hisoblanib, u har tomonlama sog‘lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va maktabga tayyorlashda o‘ziga xos muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarorida xalqaro talablarga javob beradigan yagona ko‘p darajali uzluksiz ta‘lim tizimini yaratishda kadrlarni shaffof tanlov asosida tanlashning yangi mexanizmlarini joriy etish, o‘zlariga yuklatilgan xizmat vazifalarini eng yuqori professional darajada bajara oladigan, yuqori intellektual qobiliyat va axloqiy xislatlarga, chuqur kasbiy bilimlarga ega eng malakali xodimlarni saralab olishda raqobat muhitini ta‘minlaydigan mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish dolzarb vazifa sifatida belgilab qo‘yilgan.

Materiallar va usullar. Maktabgacha yosh davrida ekologik munosabatni shakllantirish pedagogik zarurat sifatida qaralib, uning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirish hozirgi ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda pedagogik texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar va didaktik tamoyillardan samarali foydalanish talab etiladi. Bolalarni ekologik tarbiyalash nafaqat ularning tabiatni asrashga bo‘lgan intilishini oshiradi, balki ularning ijtimoiy faoliyati, mustaqil fikrlashi va mas’uliyat hissini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiyaning mazmuni, shakllari va metodlarini takomillashtirish, shuningdek, uni ta’lim jarayoniga samarali integratsiya qilish zarurati ortib bormoqda.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining tevarak-atrofga ekologik munosabatini rivojlantirish pedagogik zaruriyat sifatida yuksak ahamiyatga ega. Bu jarayon, albatta, ilm-fan asosida to‘g‘ri yondashuvni talab qiladi. Tarbiyalanuvchilarda tabiatga hurmat va unga g‘amxo‘rlik qilish, ekologik ongni shakllantirish, ekologik muammolarni tushunish va ularga qarshi kurashish kabi ko‘nikmalarni rivojlantirish uchun pedagogik vositalar va metodlar zarurdir.

Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino va Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk shaxslar o‘z asarlarida tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni, tabiat resurslaridan oqilona foydalanishni va ekologik bilimlarni targ‘ib qilishgan. Ularning buyuk ilmiy meroslari pedagogik jarayonda yosh avlodni tabiatga bo‘lgan mas’uliyatli munosabatni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Al-Xorazmiyning “Kitob surat al-arz” asaridagi tabiiy resurslar va ekologiya haqidagi fikrlari, Farobiy va Beruniyning tabiiy fanlar bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari va Ibn Sinoning tibbiyot va gigiena haqidagi ilmiy maslahatlari, Boburning o‘z asarida tabiiy muhitni, flora va faunani tasvirlash orqali insonning tabiat bilan bog‘liqligini ta’kidlashi pedagogik tizimda ekologik ta’limning asosini tashkil etadi.

Shu o‘rinda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik ta’limni tizimli ravishda rivojlantirish, tabiatni asrashga oid bilimlarni yoshlar ongiga singdirish va ularda ekologik madaniyatni shakllantirish zarur. Bu pedagogik jarayon ekologik bilimlarni bolalarga o‘rgatish, ularni tabiiy resurslar va ularning muhofazasiga oid axborot bilan tanishtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Shuningdek, tarbiyalanuvchilarni tabiatga bo‘lgan mehr-muhabbat va mas’uliyatli munosabatga yo‘naltirish ham muhim vazifa hisoblanadi. Bu o‘z navbatida, yosh avlodni ekologik ongli va tabiatga e’tiborli insonlar qilib tarbiyalashga yordam beradi.

Demak, ekologik ta’lim va tarbiya, uning tarkibiy qismlari bo‘lmish tabiatshunoslik, hayotshunoslik va resurslarni boshqarish bilimlarini bolalar ongiga singdirish orqali maktabgacha ta’lim tizimining samaradorligini oshiradi va ekologik jihatdan ongli, mas’uliyatli avlodni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat maktabgacha ta’lim tizimi, balki butun jamiyat uchun muhim pedagogik zaruriyat bo‘lib qoladi.

Natijalar. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining tevarak-atrofga ekologik munosabatini rivojlantirish pedagogik zarurat sifatida o‘rganar ekanmiz, bu borada

pedagogik nazariyaning buyuk namoyondalarining muhim nazariy qarashlariga to‘xtalib o‘tamiz. Xususan, L.S. Vygotskiy o‘zining madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasida bolalarning kognitiv rivojlanishi ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanishini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, bolalar kattalar va tengdoshlari bilan muloqot orqali tabiat haqidagi tasavvurlarini boyitadilar va ekologik munosabatlarni o‘zlashtiradilar. Shu bois, ekologik tarbiya jarayonida bolalarga mustaqil fikrlash va tabiat bilan bevosita tajriba orttirish imkoniyatini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, J. Piaget kognitiv rivojlanish nazariyasida bolalarning atrof-muhitni idrok qilish va bilish faoliyati turli bosqichlarda shakllanishini qayd etgan. Unga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalar tabiat hodisalarini bevosita sezgi va tajriba orqali anglaydilar. Bu esa ekologik tarbiyaga oid mashg‘ulotlarni bolalarning yosh xususiyatlariga mos tarzda tashkil etish zarurligini ko‘rsatadi. A.N. Leontev va D.B. Elkonin esa faoliyat nazariyasiga asoslanib, bolalarning ekologik munosabatlarini rivojlantirishda o‘yin, eksperiment va amaliy faoliyatning o‘rni muhimligini ta’kidlaydilar. Aynan shu jarayonlar orqali bolalar tabiat bilan muloqotda bo‘lib, undagi qonuniyatlarni tushunish va ekologik madaniyatni shakllantirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ekologik tarbiyani samarali tashkil etish uchun pedagogik yondashuvlar bolalarning yosh xususiyatlari, idrok va tafakkur qobiliyatlariga mos holda ishlab chiqilishi lozim. Ekologik ong va ekologik madaniyatni rivojlantirishning eng samarali yo‘li bolalarga tabiat bilan bevosita tajriba orttirish, eksperimentlar o‘tkazish va ekologik muammolarni tushunish imkoniyatini yaratishdir. Bu esa ekologik tarbiyaning nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham pedagogik zarurat ekanligini ko‘rsatadi.

Munozara. Maktabgacha yoshdagi bolalarni tabiat bilan tanishtirish yo‘llari tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida mashg‘ulotlar, o‘yinlar, mehnat va ekskursiyalarni o‘z ichiga oladi. Har bir metod bolalarga tabiat haqidagi bilimlarni o‘zlashtirish va uning go‘zalliklarini anglashda muhim ahamiyatga ega. Tarbiyachi bolalarni tabiatni idrok etishga, uning o‘zgarishlarini kuzatishga va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishga o‘rgatadi. Bu jarayonning muvaffaqiyati bolalar yoshiga va ularning pedagogik hamda fiziologik imkoniyatlariga bog‘liq bo‘lishi kerak.

N. Ravshanovanning “Maktabgacha ta’lim muassasalarida ekologik ta’lim-tarbiya” bo‘yicha tuzilgan namunaviy dasturiga ko‘ra, mashg‘ulotlar orqali bolalar tabiatni sezish va uning qonuniyatlarini anglashda asosiy bilimlarni egallashadi. Tarbiyachi tabiatni bolalar uchun yanada qulay va tushunarli qilib taqdim etadi. Bunga masalan, kuzatish, rasmlar ko‘rish, badiiy asarlar o‘qish, o‘yinlar o‘tkazish, va tabiiy voqealarni kuzatishga yordam beruvchi amaliy faoliyatlar kiradi. Ushbu metodlar bolalarda tabiatni faqat tashqi ko‘rinishi sifatida emas, balki uning qonuniyatlari, undagi o‘zaro bog‘liqliklar va o‘zgarishlarni tushunish hissini uyg‘otadi. Shunday qilib, bolalar tabiat bilan bog‘liq bilimlarni kengaytiradi, o‘rganish jarayonida uning go‘zalliklariga nisbatan chuqur hurmat va mehrni shakllantiradilar.

Xulosa. Yuqoridagi tahlil qilingan ilmiy izlanishlarga tayangan holda, bu yondashuvlar atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli yondashuvni o‘rgatish, ekologik ko‘nikmalarni rivojlantirish va tabiatni sevish bilan birga, ekologik mas’uliyatni tushunishga yordam beradi. Bu tamoyillar bolalarda ekologik munosabatni samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori. <https://lex.uz>.
2. “Сингапурская история. Из “третьего мира” – в первый”: МГИМО (У) МИД России; М.; 2005 ISBN 5-9228-0165-1/ <https://olzublog.files.wordpress>
3. Ikrom Boboqulovich Mirzayev (2021). MILLIY MADANIYAT FALSAFASI. Academic research in educational sciences, 2 (12), 965-969.
4. Mirzayev Ikrom Boboqulovich O'zbekiston yosh avlodi tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni // Fan va ta'lim bugungi kun. 2019 yil, 4-son (39). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-natsionalnyh-tsennostey-v-vospitanii-molodogopokoleniya-uzbekistana> (kirish sanasi: 18.01.2023).
5. Mirzayev Ikrom Boboqulovich Zamonaviy madaniyat jarayonlarida milliy va umuminsoniy uyg'unlik // Ilmiy jurnal. 2020 yil. 3-son (48). URL: World scientific research journal www.wsrjournal.com Volume-12_Issue-1_February-2023 146 <https://cyberleninka.ru/article/n/garmoniya-natsionalnogoioobshechelovecheskogo-vprotsessah-sovremennoy-kultury> (kirish sanasi: 18.01.2023).
6. Раматов, Ж. С., Эрниезов, У. К., Султанов, С. Х., & Хасанов, М. Н. (2022). САНЪАТНИНГ ТАРИХИЙ-ФАЛСАФИЙ АСОСЛАРИНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АХАМИЯТИ. World scientific research journal, 9(2), 65-70. 10.
7. Ramatov, J., Baratov, R., Jurabayev, N., Umarova, R., & Mamajanova, G. (2022, June). Evolution of railway construction development in Uzbekistan: Past and prospects. In AIP Conference Proceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030011). AIP Publishing LLC.